O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 10 - may 281-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-apreldagi 212-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-apreldagi “Ta’lim muassasalarida yo‘l harakati qoidalari targ‘ibotini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 212-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son farmoni hamda “Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-apreldagi “Ta’lim muassasalarida yo‘l harakati qoidalari targ‘ibotini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 212-sonli qaror hamda nizomi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar inobatga olinsin:

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va

o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Transport vazirligining:

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining amaldagi shtat birliklari doirasida Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining hududiy boshqarmalarida Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda xizmat olib boradigan katta inspektori lavozimini joriy etish;

-umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ko‘ngilli yoshlar ishtirokida yo‘l harakati qoidalarini faol targ‘ib qiluvchi “Yo‘l harakati qoidalari yosh targ‘ibotchisi” klubini va “Yashil chiroq” musobaqasini tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

Belgilansinki:

-katta inspektor umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida yoshlar o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib boradi, viktorina va musobaqalarni tashkil etadi, tadbirlarning ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlaydi, maktablarda yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish bo‘yicha yaratilgan sharoitlarni o‘rganadi, monitoring qiladi va baholaydi, aniqlangan kamchiliklar to‘g‘risida xududiy xalq ta’lim boshqarmalariga ma’lumot kiritadi hamda ta’lim muassasalarida mazkur qaror doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat qiladi;

Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi PF-6243-son farmoni 2-bandining to‘qqizinchi xatboshiga muvofiq mahalla fuqarolar yig‘inlarining ta’lim muassasalariga yaqin hududlarida “Yo‘l harakatini o‘rganish maydonchalari”ni tashkil etish uchun fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga qishloq hujaligida foydalanilmaydigan yer maydonlaridan doimiy foydalanish hududi asosida yer uchastkalari ajratiladi.

Quyidagilarni nazarda tutuvchi:

-“Yo‘l harakati qoidalari yosh targ‘ibotchisi” klubi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq:

-“Yo‘l harakati qoidalari yosh tartibotchisi” klubini tashkil etish tartibi;

klubning yo‘l harakati qoidalarini targ‘ib qilish hamda yo‘llarda harakatlanish qoidalari bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘nalishidagi asosiy vazifalari va

faoliyati hamda uning huquq va majburiyatlari;

-“Yo‘l harakati qoidalari yosh tartibotchisi”ning o‘quvchi yoshlar bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarining oldini olish, shuningdek, ularda xavfsiz harakatlanish ko‘nikmalarini hosil qilish sohasidagi vazifalari;

-“Yashil chiroq” musobaqasini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

-“Yashil chiroq” musobaqasini tashkil etish, musobaqaning bosqichlari hamda uni o‘tkazishning asosiy maqsadlari;

-musobaqaning ishtirokchilari, ularga qo‘yiladigan talablar, ularni baholash mezonlari hamda g‘oliblarni taqdirlash tartibi;

-musobaqa tashkilotchilari, uni tashkil etish bo‘yicha respublika tashkiliy qo‘mita tarkibi hamda musobaqani targ‘ib qilish va ommalashtirish tartibi.

3. Viloyat Ichki ishlar bosh boshqarmasi (T.Aripov) Xalq ta’limi hamda Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmalari bilan birgalikda:

-bir oy muddatda Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining amaldagi shtat birliklari doirasida Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati va uning hududiy boshqarmalarida oliy pedagogik ma’lumotga ega bo‘lgan, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda xizmat olib boruvchi bir nafardan katta inspektor lavozimini joriy etsin;

-viloyat Maktabgacha ta’lim va Xalq ta’limi boshqarmalari bilan birgalikda 2022-yil 1-sentabrdan boshlab “Yo‘l harakati intizomi bolalikdan boshlanadi” shiori ostida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va maktab o‘quvchilariga yo‘llarda, chorrahalarda va piyodalar o‘tish joylarida harakatlanish asoslarini amaliy-ko‘rgazmali tarzda o‘rgatishni yo‘lga qo‘ysin;

-ikki oy muddatda “harakat xavfsizligi sinfxonalari” namunaviy loyihalarini ishlab chiqib, ushbu loyihalar asosida 2022-2025-yillarda umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida “harakat xavfsizligi sinfxonalari”ni tashkil etish dasturini ishlab chiqsin va ijrosini ta’minlasin;

-ikki oy muddatda har yili umumiy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkaziladigan yo‘l harakati qoidalarini faol targ‘ib qiluvchi “Yashil chiroq” musobaqasini tashkil etsin;

-umumiy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalariga biriktirilgan hodimlarni, shu jumladan “Yo‘l harakati qoidalari yosh targ‘ibotchisi” klubi faol a’zolarini ular tomonidan amalga oshirilgan ishlarning natijadorligidan kelib chiqqan holda, Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, xodimlarni rag‘batlantirish va mukofotlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan rag‘batlantirib borsin;

-shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda ikki oy muddatda mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga ajratilgan yer maydonlarida 2022-2024-yillarda “Yo‘l harakatini o‘rganish maydonchalari”ni tashkil etish dasturini ishlab chiqib ijrosini ta’minlasin;

-viloyat Transport, Xalq ta’limi, Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish, Yoshlar ishlari agentligi, Nurafshon TV, Axborot texnologiya va kommunikatsiyalarni rivojlantirish, Viloyat hokimining matbuot kotibi bilan birgalikda uch oy muddatda “Yo‘l harakati qoidalarining asoslari” videokurslarini yaratsin va ta’lim muassasalari hamda ommaviy axborot vositalari orqali ommalashtirish choralarini ko‘rsin;

-viloyat Transport boshqarmasi shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda 2022-2024-yillarda ta’lim muassasalari atrofida belgilangan tartibda harakat tezligini kamaytiruvchi sun’iy notekisliklar yoki shovqin chiziqlari bosqichma-bosqich o‘rnatilib, to‘liq jihozlanishini ta’minlasin.

4. Viloyat Xalq ta’limi boshqarmasi (A.Kamalov), Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi (U.To‘xtayev)

-viloyat Ichki ishlar bosh boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda belgilangan muddatlarda umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ko‘ngilli yoshlar ishtirokida yo‘l harakati qoidalarini faol targ‘ib qiluvchi “Yo‘l harakati qoidalari yosh targ‘ibotchisi” klubini tashkil etsin;

-2022-2025-yillarda umumiy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida “Harakat xavfsizligi sinfxonalari”ni tashkil etish bo‘yicha tasdiqlangan dasturga muvofiq umumta’lim muassasalarida tegishli sinfxonalar tashkil etish uchun zarur xonalar ajratilishini ta’minlasin;

-umumiy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida yo‘l harakati qoidalari sohasida nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida ichki ishlar organlari

hodimlari ishtirokida o‘quv-seminarlar tashkil etsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari J.Babajanov hamda viloyat Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i T.Aripov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**